

HUQUQIY SOHADA SUN'IY INTELEKTNING ETIK MUAMMOLARI

Abdulazizov Iskandar Baxrom o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt huquq tizimida qanday etik muammolarni keltirib chiqarishi tahlil qilinadi. Advokatlar, sudyalari va yuristlar faoliyatida sun'iy intellektdan foydalanish inson huquqlariga qay darajada ta'sir etishi, undan foydalanish shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi, algoritmik tarafkashlik hamda javobgarlik masalalarining noaniqligi kabi asosiy etik muammolar yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, huquq tizimida sun'iy intellektdan foydalanganda axloqiy me'yorlar va huquq nazorat mexanizmlarini yanada isloh qilish kerakligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellect, etik muammolar, huquq tizimi, inson huquqlari, mas'uliyat, yuristlar.

I. Kirish

Bugungi kunda butun dunyoda sun'iy intellektdan foydalanish keskin o'sib bormoqda, jumladan huquq sohasida ham keng foydalanilmoqda. Hozirgi kunda dunyo raqamlashib borishi natijasida, inson mehnati yengillashib bormoqda va tezkorlik oshib bormoqda. Hozirda sun'iy intellekt har bir sohada jumladan, tibbiyot, iqtisodiyot, ta'lim va ko'plab sohalarda qo'llanib kelinmoqda ammo, huquq sohasida qo'llanilishi yuristlar uchun juda ham katta qulaylikni yaratdi. Masalan, AQSHda sun'iy intellekt advokatlarga huquqiy ma'lumotlarni tezroq tahlil qilishga juda ham katta yordam beradi. Misol uchun "Ross Intelligence" dasturidir. Bu dasturning asosiy maqsadi advokat va yuristlarga sud qarorlari, har xil normativ-huquqiy hujjatlar orasidan biron-bir masalaga eng mos javobni topishda yordam berishdir. Ammo lekin hozir bu dasturning faoliyatiga mutloqo chek qo'yilgan. Buning sababi, "Ross Intelligence" Lexis Nexisning ruxsatisiz uning huquqiy ma'lumotlar bazasidan foydalanganligi sababli, bu ikkala kompaniya bu masala bo'yicha sudlashganlar. Lexis Nexis kompaniyasi mualliflik huquqi buzilgan deb bu holat bo'yicha sudga da'vo arizasi kiritgan. Shu sababli, 2021-yilda bu dasturning faoliyati

to'xtatilgan. Endi agar sun'iy intellekt tomonidan insonlarga nisbatan ularning huquqlari buzilishi holati uchrasa, kim bu yerda aybdor degan masala haligacham dolzarbligicha qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga muvofiq, inson uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat ekanligi belgilab qo'yilgan. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, sun'iy intellektning huquqiy sohada foydalanilishi har qanday holatda ham inson huquq, sha'ni va adolat tamoyillariga zid bo'lmasligi lozim. Bundan tashqari,¹

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi" qonunga muvofiq, sun'iy intellekt ma'lumotlarni qidirish, yig'ish va saqlashda ruxsat, maxfiylik va shaffoflik tamoyillariga og'ishmay rioya etishga majburdir.²

Ammo lekin, sun'iy intellekt insonlar tomonidan anglab bo'lmaydigan har-xil algoritmlar asosida ishlaganligi bois, ushbu qonunga to'liq rioya etilishi kundan-kunga murakkablashib bormoqda. Endi xalqaro miqiyosda bu masala qanday yechim topayotganligiga to'xtaladigan bo'lsak. Yevropa Ittifoqi 2024-yil sun'iy intellektga doir akt qabul qildi. Ushbu hujjatda sun'iy intellekt faoliyati inson nazorati ostida ishlashligi, xavf darajasiga qarab tartibga solinishligi, e'tik meyorlarga rioya etish kabi talablar o'rnatilgan. Bundan tashqari, Yuneskonning "Sun'iy intellekt etikasi to'g'risidagi tavsiyasi" da, sun'iy intellekt inson huquqlarini ta'minlashi shart ekanligi belgilab qo'yilgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston ham xalqaro tajribalarga tayangan holda sun'iy intellektning faoliyatiga doir qonun yoki kodeks ishlab chiqishi lozim. Agar bu masala huquqiy jihatdan tartibga solinmasa, bevosita inson huquqlariga putur yetkazilish xavfi yuqori.³

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi-huquq tizimida sun'iy intellektidan foydalanish inson huquqlariga, adolat va shaffoflik tamoyillariga zid kelib qolishining oldini olishdan iboratdir. Bundan tashqari, sun'iy intellekt faoliyatini normativ-huquqiy hujjatlar bilan

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: Adliya vazirligi, 2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>.

² O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi qonun. 2019-yil 2-iyul, O'RQ-547-son. Toshkent Adliya vazirligi.

³ UNESCO Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence.

tartibga solish orqali etik muammolarni bartaraf etish uchun huquqiy va ⁴axloqiy mexanizmlarni taklif etishdan iboratdir.

II. Metodologiya

Ushbu maqolada sun'iy intellektning huquqiy, tahliliy, qiyosiy va tizimli yondashuvlar asosida huquqiy sohadagi etik muammolari o'rganiladi. Mazkur maqolaning asosiy manbalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Prezident farmonlari, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun, xalqaro normativ- huquqiy hujjatlar kiradi. Xalqaro hujjatlar turlariga- Yevropa Ittifoqining "AI Act" va YUNESKOning "Sun'iy intellekt etikasi ⁵to'g'risidagi tavsiyasi" mazkur maqolaning asosi qilib olindi.

Sun'iy intellektning huquq sohasida foydalanilishiga oid ilmiy maqolalar, qonunchilik hujjatlari va xalqaro miqiyosdagi normativ- huquqiy hujjatlar tahliliy yondashuv orqali o'rganildi. Bu jarayonda sun'iy intellekt sud qarorlarini qanday tahlil qila olishi, advokatlariga ularning ishini qanday qilib yengillashtirib berishi tahlil qilindi. Shu qatorda, sun'iy intellekt faoliyati adolat, inson nazorati va mas'uliyat kabi tamoyillarni qanday buzishi kabi holatlar o'rganildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13, 27 va 31-moddalarida belgilangan inson sha'ni, shaxsiy daxlsizlik va davlatning inson huquqlarini himoya qilish majburiyati asos sifatida qo'llanildi.

Qiyosiy yondashuvlar orqali O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt faoliyati boshqa mamlakatlarning tajribalariga solishtirildi. Bular AQSH, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi. Endi Yevropa Ittifoqining "AI Act"ga to'xtaladigan bo'lsak, bu aktda sun'iy intellekt tizimlari xavf darajasiga ko'ra to'rt toifaga bo'linar ekan: minimal, cheklangan, yuqori va taqiqlangan xavf. Ammo lekin bunday yondashuv

⁴ European Union Artificial Intelligence Act (EU AI Act). - Brussels: European Commission, 2024

https://weareyuma.com/insights/why-ai-literacy-training-is-now-a-must-for-companies?gad_source=1&gad_campaignid=22849297639&gbraid=0AAAAAQZfY11CBTmLM5tuy9CAJzBmjIcJ&gclid=Cj0KCQiA5aIBhCaARISAM3-zFXInghQpi31V91bN2iQzN_KeiNpYMQDapYblUM5LWgojGVO6CayRccaAthSEALw_wcB#:~:text=Why%20AI%20Literacy%20training%20is%20now%20a%20must%20for%20companies.

bizning mamlakatimiz qonunchiligiga hali kiritilmagan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida''gi qonunning 8,10 va 11 moddalari (GDPR) Ya'ni ''General Data Protection Regulation'' hujjati bilan solishtirildi.

Normativ-huquqiy tahlil usuli orqali xalqaro huquq normalari va O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari o'rtasidagi farq o'rganildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 13-moddasi-inson sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat ekanligini belgilaydi;

27-modda-har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi;

31-modda-har kim o'z shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish huquqiga egaligi;

Tizimli yondashuv:sun'iy intellekt ijtimoiy-huquqiy tizimda-qonunchilik va axloqiy normalarni o'zaro solishtirish orqali o'rganildi.

Empirik ma'lumotlar:O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi,BMT,

Yevropa Ittifoqi,Axborot texnologiyalarining normativ-huquqiy hujjatlari asosida amaliy ma'lumotlar tahlil qilib chiqildi.

III.Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko'ra,O'zbekiston huquq tizimida sun'iy intellektning ijobiy jihatlaridan tashqari,uning bir nechta etik muammolari kelib chiqishi xavfi bor.

Normativ-huquqiy hujjatlarning yo'qligi. O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellektning faoliyatiga doir qonun hali ham qabul qilinmagan.Qonunlar bor faqat ular kiberxavfsizlik bo'yicha normalar xolos. Ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi.O'zbekiston Respublikasining ''Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida''gi qonunining asosiy vazifasi shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish bo'lsa ham,sun'iy intellekt juda katta hajmdagi algoritmlar asosida ishlaganligi bois u shaxslarning roziligisiz ularning ma'lumotlarini yig'ishi va oshkor qilib yuborishi mumkin.Javobgarlik muammosi.Agar sun'iy intellekt tomonidan insonlarning shaxsiy hayot daxlsizligi buzilsa yoki u tomonidan adolatsiz qaror chiqarilsa bu yerda kim javobgarlikka tortiladi degan masala hali hanuz O'zbekistonda muammoligicha qolmoqda.Algoritmik xolislik muammosi.Algoritm va sun'iy intellekt insonlarning jinsi,irqi,millati,dini yoki boshqa omillar tufayli ularni kamsitish yoki ularning ma'lum bir huquqlarini cheklashdir.Misol uchun:ishga qabul qilishda sun'iy intellekt qatnashadigan bo'lsa va u ayollardan ko'ra

erkaklarni ko'proq ishga qabul qilishini ma'qullaydigan bo'lsa bu yerda albatta algoritmik xolislik mavjud emas. Inson nazorati va axloqiy javobgarlik. Sun'iy intellekt asosan "qora quti" prinsipi asosida ishlaganligi sababli u qabul qilgan qarorni u nimalarga asoslanib qilganini tushunish insonlar uchun qiyin. Bu esa o'z navbatida sudda qonuniylik prinsipiga zid kelib qolishi mumkin.

IV. Muhokama

Sun'iy intellekt hozirgi kunda hamma sohaga kirib kelmoqda misol uchun tibbiyot, iqtisodiyot, ta'lim va boshqa sohalarga ham. Bundan tashqari, sun'iy intellekt huquq tizimiga ham kirib kelib bo'ldi. U hozirgi kunda sud ishlarini tezlashtirish, advokatlarning muammolarni tahlil qilishlariga ham juda katta yordam bermoqda. Ammo lekin u bir vaqtning o'zida bir nechta etik muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Hozirgi kunda sun'iy intellekt algoritmlarining shaffofligi butun dunyoda ko'p muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Sun'iy intellekt murakkablashgan matematik algoritmlarda ishlaganligi bois, u qabul qilgan qarorlarni insonlarga tushunarli tarzda tushuntirish qiyin. Katta ehtimol bilan sudda sun'iy intellekt tomonidan qabul qilingan qarorni u qaysi manbalarga tayangan holda bu qarorni chiqarganligi noma'lum bo'ladigan bo'lsa, bu albatta qonuniylik va odillik prinsiplariga zid kelib qolishi mumkin. Axborot maxfiyligi ham sun'iy intellektning huquq tizimida qo'llanilishida ham etik muammo bor. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunga muvofiq, fuqaroning shaxsiy ma'lumotlari faqat uning roziligi bilan yig'ilishi, tarqatilishi va saqlanishi mumkin ekanligi belgilab qo'yilgan. Ammo lekin sun'iy intellekt juda katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlaganligi bois, unga insonlarning shaxsiy ma'lumotlarini topish qiyin ish emas. Agar u insonlarning shaxsiy ma'lumotlarini ularning rozilgisiz oshkor qiladigan bo'lsa, bu holatda jamiyatimizda juda ko'plab ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin. Shu boisdan mamlakatimizda axborot xavfsizligini kuchaytirishimiz zarur. Sun'iy intellekt faoliyatida diskriminatsiya xavfi ham bo'lishi mumkin. Chunki sun'iy intellekt qaror qabul qilishda o'tmishdagi va hozirgi kundagi voqealarni solishtirgan holatda qaror qabul qiladi. Masalan: o'tmishda gender tenglik degan tushuncha bo'magani yoki irqiy kamsitishlar bo'lganligi bois sun'iy intellekt bu tushunchalarni qaror qabul qilayotganda inobatga olishi mumkin. Shu sababli bu masalaga iloji borisha ko'proq yondashish

zarur. Huquqiy javobgarlik- bu masala hali ham dunyo miqiyosida va O'zbekistonda dolzarbligicha qolmoqda. Agar sun'iy intellekt tomonidan adolatga zid qaror qabul qilinsa yoki inson huquqlariga putur yetkaziladigan bo'lsa, bu holatda kim javobgar degan masala dolzarbligicha qolmoqda. Bu masala nafaqat O'zbekistonda balki, xalqaro miqiyosda ham muammo bo'lib kelmoqda. Lekin Yevropa Ittifoqining "AI Act" nomli hujjatida maxsus sertifikatlash va javobgarlik belgilab berilgan. O'zbekistonda ham shunga o'xshash normativ-hujjatlar ishlab chiqilishi kerak. Sun'iy intellektning huquqiy subyektivligi masalasi ham hali hanuz muhokama qilib kelinmoqda.

O'zbekistonning normativ-huquqiy hujjatlari bilan xalqaro tajribalarni solishtirganda, bir qancha muhim jihatlar aniqlandi. Yevropa Ittifoqining "AI Act" normativ-huquqiy hujjatida sud, prokuratura va boshqa organlar faoliyatida agar sun'iy intellekt foydalanilmoqchi bo'linsa bu organlarda belgilangan sertifikat va inson nazorati bo'lishi talab etilgan. Ammo lekin O'zbekistonda hali bunday talablar ichlab chiqilmagan. Bundan tashqari Yuneskonning sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyasida shunday deyilganki, sun'iy intellektning faoliyati insonlarga foyda keltiradigan va adolat tamoyillariga asoslangan bo'lishi lozim deb yozib qo'yilgan. Bu tamoyil bizning O'zbekiston uchun ham juda muhimdir, chunki konstitutsiyamizning 13-moddasida ham bu tamoyil belgilab qo'yilgan. Shuningdek, BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega deb yozib qo'yilgan.⁶ O'zimning tavsiyalarimni bildiradigan bo'lsam, O'zbekistonda quyidagi mexanizmlarni ishlab chiqish lozim: Sun'iy intellektning javobgarligi masalasini qonun yo'li bilan tartibga solish, ma'lumotlarning maxfiyligini yanada kuchaytirish, sun'iy intellekt ustidan inson nazoratini kuchaytirish. Bundan tashqari, Yuneskonning "Sun'iy intellekt etikasi to'g'risidagi tavsiyada ham sun'iy intellektning faoliyati insonning

⁶Universal Declaration of Human Rights.-United Nations General Assembly, 10 December 1948.

sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilishi zarur ekanligi belgilab qo'yilgan. Shu bois, O'zbekiston qonunchiligida ham bunday normalar kiritish lozim.

V. Xulosa

Sun'iy intellekt hozirgi kunda jadallik bilan rivojlanib boryatganligi bois u har bir sohaga kirib bormoqda jumladan huquq tizimiga ham. Sun'iy intellekt huquq sohasida foydalanganligi bois yuristlarning ishi ancha yengillashdi. U hujjatlarni juda tez fursatda tahlil qila olganligi bois ko'p huquqiy muammolarga oz fursatda yechim topilmoqda. Ammo lekin bir narsani inobatga olish zarur! sun'iy intellekt faoliyati har doim inson huquq va erkinliklariga putur yetkazmasligi zarur. Chunki Konstitutsiyamizning 13-moddasida inson huquqlari oliy qadriyat ekanligi belgilab qo'yilgan. Shuning uchun sun'iy intellekt faoliyati har doim inson huquq va erkinliklarini ta'minlashi zarur. Biz sun'iy intellekt faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga soladigan qonun ishlab chiqishimiz lozim. Bu qonunning ichiga quyidagilarni kiritsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Avvalo sun'iy intellektning maqomini aniqlab olish zarur. Chunki agar biz sun'iy intellektni subyekt sifatida tan oladigan bo'lsak uni qonuniy jihatdan javobgarlikka torta olamiz. Endi mas'uliyatga to'xtaladigan bo'lsak. Agar biz sun'iy intellektga mas'uliyat yuklaydigan bo'lsak, u o'z faoliyatida faqat o'zining zimmasiga yuklangan vazifalarni bajaradi xolos ya'ni o'z faoliyatida chegaradan chiqish holatlari uchramaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Toshkent: Adliya vazirligi.
<https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun. (2019-yil 2-iyul, O'RQ-547-son). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
<https://lex.uz/docs/-4396419>
3. European Union Artificial Intelligence Act (EU AI Act 2024).
https://jpt.spe.org/european-parliament-adopts-landmark-artificial-intelligence-act?gad_source=1&gad_campaignid=14404127682&gbraid=0AAAAADcmBRgdMqIWpfEj4aX1M0-IHJO0t&gclid=Cj0KCQiA5abIBhCaARIsAM3-

zFUpEXqx Ei5jpQsreL1lW-

iERaVdijh4gf1yNo_Xw9PpkwPYh1VWqa8aAmbmEALw_wcB

4.UNESCO.(2021).Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence.Paris:United Nations Educational,Scientific and Cultural Organization.

<https://www.unesco.org/en/articles/recommendation-ethics-artificial-intelligence>

5.United Nations General Assembly.(1948).Universal Declaration of Human Rights.New York:United Nations.

6.The global landscape of AI ethics guidelines.Nature Machine Intelligence.

7.O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun.

8.O'zbekiston Respublikasining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qonun.

9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.